Yog' – moy sanoati korxonalarida soliqlar hisobi va auditi jarayonlarida tahliliy amallardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	1327
A'zamova Aziza Olimjon qizi	
Qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyati iqtisodiy samaradorligini oshirishning xorij tajribasi.....	1334
Umirova Gulmira Shodiboy qizi	
Xalqaro moliya-kredit institutlar bilan hamkorlikning iqtisodiy-huquqiy asoslari	1343
Qosimov Bobur Sobirovich	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda yengil sanoat eksporti diversifikatsiyasining roli va yo'nalishlari.....	1347
Otamurodov Shavkat Nusratillayevich, Eshqulova Nasiba Normo'minovna	
Система раннего предупреждения о снижении финансовой устойчивости предприятия на основе ключевых показателей эффективности (KPI).....	1359
Тажибаева Кизларгул Ажиниязовна	
Soliq tizimida soliq riskini baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish uslubiyoti.....	1374
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvi tahlili va uning xususiyatlari	1383
Sarimsaqov Doniyor Xomidovich	
Surxondaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faol korxonalar va tashkilotlar tahlili	1390
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	
Mehnat bozori: rivojlanish tendensiyalarining iqtisodiy-statistik tahlili, baholash va istiqbollari.....	1396
Mirzayeva Odina Imomnazar qizi	
Адаптивная модель антикризисных мероприятий, направленных на повышение эффективности управления активами, оптимизацию затрат и реструктуризацию задолженности	1402
Tajibayeva Kizlargul Ajiniyazovna	
Xalqaro va ichki turistik bozorlarda o'zbekistonning turistik mahsulotlarini targ'ib qilish mexanizmi	1409
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna	
Tourism infrastructure constraints and service gaps in uzbekistan's visitor economy.....	1412
Kurolov Maksud Obitovich, Xamidjonova Moxinur Xayrulla qizi	
Основные проблемы перехода на МСФО в республике узбекистане	1419
Махмудов Жамшед Ашрафович	
Binolar loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishning nazariy va amaliy asoslari.....	1425
Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.	
Ayrim ta'lim tizimi bilan bog'liq terminlarning izohli lug'at va etimologik lug'at o'rtasidagi farqi.....	1429
Mahbuba Xoliqova Abdimo'min qizi	
Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda soliq salohiyatining ahamiyati	1433
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
Corpus-based framework of english teaching for competency-oriented curriculum design	1448
Raximova Gulnoza Sharipjanovna	
Masofaviy ta'lim tizimida matematika fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari	1454
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Texnologik inqilob va mehnat bozorining transformatsiyasi	1459
A'zamova Feruza, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
Sifat menejmenti tizimini rivojlantirish asosida uy-joy fondlarini boshqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari.....	1465
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	



O'zbekistonda ekologik turizm: yashil iqtisodiyot rivojini tezlashtiruvchi omil.....	1471
Rashidov Saidislom	
Navoiy viloyatida yirik sanoat monopoliyalarini rivojlantirishning tabiiy-iqtisodiy salohiyati ("Qizilqumsement" AJ misolida).....	1474
Savrieva Madina Xakimovna, Xamroyeva Shaxnoza Ibrohim qizi	
Eksport-import operatsiyalarida dolzarb muammolar va yechimlar	1480
Xudayberdiyeva Dilnoza Egamberdiyevna	
Роль международных финансовых центров в мировой экономике	1484
Нуриддинова Мафтуна Жахонгировна	
Measures to enhance the tax mechanism applied to business entities.....	1489
Kudiyarov Kishibay, Aytmuratov Qutlimurat Jalgasovich	
Davlat boshqaruv organlarining xizmat ko'rsatish sohasini samarali tashkil etish orqali kambag'allikni qisqartirish.....	1495
Asrorov Uchqun Akram o'g'li	
The role of green logistics in Uzbekistan and international trends.....	1499
Turakulova Dildora, Ismoilova Diyora	
Hududlarda turizm mahallalarning turistik salohiyatini oshirish usullari (Bog'ibaland turizm mahallasi misolida)	1506
Raxmanov Jasur Ubaydulloyevich	
Human Capital and Artificial Intelligence: Navigating the Future of Work	1511
Hamrokulov Mirabbos, Karimbergan Kariev	
Analysis of green economic growth indicators in uzbekistan.....	1518
Toshboyev Bekzod Bakhtiyorovich	
Toshkent viloyati iqtisodiyotida vino turizmning o'rni.....	1526
Jalilov Shoxjahon Xolbozor o'g'li	
O'zbekiston sharoitida qurilish loyihalari materiallari sarfini tahlil qilish va optimallashtirish va ularni iqtisodiy-matematik modelmodellashtrish	1530
Turayeva Mohinur Asliddinovna	
Auditorlik tekshiruvini rejalashtirishda dasturiy ta'minot va zamonaviy axborot texnologiyalarning o'rni.....	1534
Xodjayevo Mu'tabar Xamidulla qizi, Cho'ponova Gulira'no Doniyor qizi	
Suv tarkibining "wireless waterlight" qurilmasi ishlashiga ta'siri va iqtisodiy samaradorligini matematik model asosida tahlil qilish.....	1540
Kungiratbay Sharipov, Ma'ruf Nurmanov	
Zamonaviy sharoitda dxsh asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xizmatlar ko'rsatishning integratsion jarayonlari.....	1546
Ubaydullayeva Vasila Sadullayevna	
Donni saqlash va qayta ishlash korxonalari biznes jarayonidan olingan chiqindilar hisobini takomillashtirish	1549
Valijonov Xasanboy Akbaraliyevich	
Commercial real estate as a tool for synchronizing economic processes.....	1556
Nastassia Chyhyryna, Siarhei Liashuk, Allayeva Gulchexra Jalgasovna, Khakimdjanova Surayyo Khabibullayevna	
Asalarichilik faoliyatini rivojlantirish bosqichlari va istiqbollari	1563
Shodiyev Murodjon Bakirovich	
Sug'urta kompaniyalari samaradorligini oshirishga qayta sug'urtaning ta'sirini baholash.....	1567
Abirqulova Sohijjamol Normuhammad qizi	
O'zbekistonda yerga mulkchilik munosabatlarini tartibga solishning amaldagi mexanizmi tahlili.....	1572
Abdunazarov Oybek Abdumutalibovich	
«Sirdaryo viloyatida iqtisodiy faoliyatlar natijasida yerlarning degradatsiyasi muammosi: sabablari va yechimlari»	1578
O'ng'arov Hasan G'ayrat o'g'li	



The methodology for using a PM1-PM10 collection device in Uzbekistan is relevant to the climatic conditions	1584
Bakhtiyor Pulatov, Bobur Sadriddinov	
Gullar yetishtirishda iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar: amaliy so'rovnoma asosidagi tahlil	1591
Nurmatova Dilola Dilshod qizi	
Budjet mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratning huquqiy asoslarini takomillashtirish	1595
Jurayev Nomoz Tursunpulotovich	
Ishlab chiqarish korxonalari tashkiliy tuzilmasida logistika xizmati samaradorligini oshirish	1601
Maxmidov Shirinboy Botirovich	
Bank xizmatlarini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri va jarayonlarni optimallashtirish	1606
Maxsadaliyeva Maftuna Toxir qizi	
The period of emergence of accounting policy and its significance in preparing financial statements	1611
Sayfulloyev Jamshid Qobil o'g'li	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida kompaniyalar boshqaruv darajalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati	1615
To'ychiboyev Nozimjon Soliyevich	
Qishloq hududlarida qayta tiklanuvchi energiya resurslarining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan samaradorligi	1621
Ashurov Azizbek Ergash o'g'li, Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li	
Qurilish korxonalari faoliyatida yashil iqtisodiy infratuzilmani raqamlashtirish	1625
Abdullayev Asliddin Nabi o'g'li	
Sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari	1630
Ostonov Muhiddin Bahriddin o'g'li	
Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash yo'llari	1637
Normetov Bobur Sharifboyevich	
Oliy ta'lim xizmatlari bozorida marketing faoliyatini tashkil etish va amalda rivojlantirish asoslari	1642
Yuldashov Isomiddin Sidiqovich	
Iqtisodiy konsentratsiyalarning sog'lom raqobat muhitiga ta'siri	1649
Luqmonov Sharifxon A'zam o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi energetika sektorida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etishning ahamiyati va istiqbollari	1653
Uralov Temur Boxodir o'g'li	
Raqamli moliyaviy texnologiyalar (FinTech) va ularning gaz sanoatida investitsion boshqaruvga ta'siri	1658
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li	
Mintaqa investitsion jozibadorligini oshirish va unga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik baholash	1663
Bo'riyev Sardor Norovich	
O'zbekistonda xalqaro kasbiy ta'lim dasturlari: yangi imkoniyatlar, global ta'lim va xalqaro mehnat bozori integratsiyasi	1668
Masharipov Farrux O'tkirovich	



O'ZBEKISTONDA XALQARO KASBIY TA'LIM DASTURLARI: YANGI IMKONIYATLAR, GLOBAL TA'LIM VA XALQARO MEHNAT BOZORI INTEGRASIYASI

Masharipov Farrux O'tkirovich

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Kasbiy ta'lim integratsiyasi boshqarmasi boshlig'i

ORCID 0009-0000-8217-8280

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasbiy ta'lim tizimiga xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish orqali yoshlarni kasbga o'qitish orqali xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar etib tayyorlash mavzusi tasniflangan. Shuningdek, kasbiy ta'lim tizimiga xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish bilan bog'liq amaldagi holat, qonunchilik hujjatlari hamda mavjud muammolar tahlil qilingan.

Shu bilan birga, yoshlarni xalqaro ta'lim dasturlari asosida o'qitish orqali ularni tashqi mehnat bozorida o'z o'rnlarini topishi, xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etishning avzalliklari yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Kasbiy ta'lim tizimi, texnikumlar, xalqaro ta'lim dasturlari, global ta'lim, qo'shma ta'lim dasturlari, ichki va tashqi mehnat bozori, integratsiya, zamonaviy kasblar, xorijiy tillar.

Abstract: This article discusses the topic of training young people to become competitive personnel in the international labor market by introducing international educational programs into the vocational education system. The current situation, legislative documents, and existing problems associated with the introduction of international educational programs into the vocational education system are also analyzed.

At the same time, suggestions and recommendations are made on the advantages of introducing international educational programs and helping young people find their place in the foreign labor market.

Key words: Vocational education system, technicums, international education programs, global education, joint education programs, internal and external labor market, integration, modern professions, foreign languages.

Аннотация: В данной статье рассматривается тема подготовки молодых специалистов, конкурентоспособных на международном рынке труда, посредством внедрения международных образовательных программ в систему профессионального образования. Анализируется текущая ситуация, законодательные документы и существующие проблемы, связанные с внедрением международных образовательных программ в систему профессионального образования.

Также, даны предложения и рекомендации о преимуществах внедрения международных образовательных программ и помощи молодым людям в трудоустройстве на зарубежном рынке труда.

Ключевые слова: Система профессионального образования, техникумы, международные образовательные программы, глобальное образование, совместные образовательные программы, внутренний и внешний рынок труда, интеграция, современные профессии, иностранные языки.



KIRISH

Globallashuv sharoitida jahonda yuz berayotgan o'zgarishlar, kasbiy ta'lim tizimi oldida yangi vazifalarni qo'yimoqda. Jumladan, xalqaro standartlarga mos malakali, zamonaviy ko'nikmalarga ega, xorijiy tilni yuqori darajada o'zlashtirgan o'rta bo'g'in kadrlarni tayyorlash va ularni xalqaro mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash.

Bugungi kunda jahonda global ta'lim muhitini shakllantirishda uning uzluksizligi va uzviyligi hamda ta'lim sifatini ta'minlash, ijodiy rivojlanishga yo'naltirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Jahonda o'sib borayotgan kadrlar etishmovchiligi va kadrlar bo'shlig'i masalalari bugungi kunda xalqaro mehnat bozorida kun tartibida turgan asosiy muammolardan biri hisoblanadi.

Ta'lim muassasalarini tamomlaganlar va o'z ishlarini ustasiga aylangan mutaxassislar egallagan kasb va mutaxassisliklari bo'yicha ish topolmayotgan bo'lsalar, ish beruvchilar esa mavjud ish o'rinlariga mutaxassislar topish uchun yillar yo'qotmoqdalar.

Bugungi kunda xalqaro mehnat bozoriga yangi texnologiyalar, sun'iy intellektning kirib kelishi millionlab insonlarni ishsiz qoldirib kadrlar bo'shlig'i muammosini yanada murakkablashtirgan holda xalqaro mehnat bozorini tubdan o'zgartirmoqda.

Kadrlar tayyorlashning mavjud tizimi bu o'zgarishlarga moslashishga ulgurmayapti va biznesning yangi shakl-shamoyildagi kadrlarga toboro o'sib borayotgan ehtiyojini ta'minlashga qodir emas. Natijada kadrlar bo'shlig'i iqtisodiyotning barcha tarmoqlari, butun mamlakatlar va qolaversa, deyarli turli shakldagi bizneslarga muhim darajada ta'sir etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024 yil 16 oktyabrdagi PF-158-son Farmoni bilan 2025/2026 o'quv yilidan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida jami 14 ta texnikumlarda Angliyaning "Pearson Education Limited" kompaniyasining BTEC kvalifikatsiyalari asosida xalqaro ta'lim dasturi joriy etish belgilandi.

Mazkur Farmonning ahamiyati shundaki oldingi tizimda kasb-hunar maktab, kollej va texnikumlarda xalqaro ta'lim dasturini joriy etish bo'yicha qonunchilikda cheklovlar mavjud edi. Endilikda Farmon bilan tashqi mehnat bozoriga xalqaro darajadagi kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlash imkoniyati yaratildi[1].

Angliyaning "Pearson Education Limited" kompaniyasining BTEC kvalifikatsiyalari joriy etilishi birinchi navbatda dunyo darajasidagi kasb va xalqaro hujjat berilishi, dunyoning 70 dan ortiq davlatida tan olinadigan diplom va sertifikatga ega bo'lish, xorijiy til ko'nikmalarini rivojlantirish hamda dunyoning 200 dan ortiq nufuzli oliygohlarida o'qishni davom ettirish O'zbekistonlik yoshlar uchun xalqaro mehnat bozoriga kirib borish imkoniyatini oshiradi.

Mazkur Farmon mamlakatimizda malakali o'rta bo'g'in kadrlarni tayyorlash, xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish va iqtisodiyotning zamon talablariga moslashadigan ta'lim tizimini yaratishga qaratilgan keng qamrovli islohotlarning boshlanishi hisoblanadi. Unda nafaqat kasbiy ta'lim tizimini takomillashtirish, balki ta'lim va ishlab chiqarish sektori o'rtasidagi integratsiyani hamda xalqaro mehnat bozoriga kirish imkoniyatlarini oshirish nazarda tutilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.

Hozirgi dunyoda ish beruvchilarning o'ziga zarur bo'lgan mutaxassislarni topa olmasligi odatiy holga aylanib bormoqda, negaki, mehnat bozorida bunday mutaxassislarni o'zi yo'q. Korxona va tashkilotlar, kompaniyalar kerakli malakasi va tajribasi yo'q insonlarni ishga olib, keyin ularni qayta o'qitish uchun sarmoya sarflashga majbur bo'lmoqda.

Shunga qaramay, davlat ko'nikma va malakalariga talab bo'lmagan yoki mehnat bozorida ortiqcha bo'lgan mutaxassislar ta'limi uchun moliyalashtirishda davom etmoqda. Ta'lim muassasalari ish beruvchilarning hozirgi talab-ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlaguncha, bitiruvchilar o'qishni bitirib ulgurmay ish beruvchilarning talablari yanada o'zgarib ketmoqda.

Kasbiy ta'lim tizimiga xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish masalasi bo'yicha bir qancha xalqaro tashkilotlar, olimlar va ekspertlarning qarashlari hamda bu sohada nazariy va amaliy yondashuvlarni shakllantirishda muhim rol o'ynagan. Jumladan:

Amerikalik psixolog va kasbiy rivojlanish nazariyotchisi Doland Super kasbiy ta'lim shaxsning butun hayoti davomida rivojlanadigan jarayondir. Unga xalqaro kontekstni qo'shish esa o'quvchining dunyoqarashini kengaytiradi va mehnat bozorida moslashuvchanligini oshirishni takidlagan.

Shuningdek, Superning "hayot yo'li" (life-span) modeli kasbiy ta'lim tizimiga xalqaro kompetensiyalarni erta bosqichdayoq singdirishni taklif qiladi[2].



Buyuk Britaniyalik kasbiy ta'lim tizimi bo'yicha tadqiqotchi David Ashtonning fikricha kasbiy ta'lim milliy chegaralardan chiqib, global iqtisodiyotning dinamikasiga moslashishi shart. Ta'lim tizimi eksport qilinadigan mahsulotga aylanishi kerak deb hisoblaydi hamda xalqaro akkreditatsiyalangan dasturlarni joriy etishni "iqtisodiy diplomatiya" vositasi deb aytadi[3].

Amerikalik tajriba asosida o'qitish nazariyasi muallifi D.Kolb kasbiy ta'limda amaliyotga asoslangan xalqaro ta'lim modullari o'quvchining o'zlashtirish darajasini keskin oshiradi deb hisoblagan[4].

UNESCO va ILO (Xalqaro Mehnat Tashkiloti)ning ekspertlari kasbiy ta'lim xalqaro standartlarga asoslanishi lozim. Chunki kasbiy ta'limni transformasiya qilish orqali global tengsizlik va ishsizlik muammolarini kamaytirish mumkin deb hisoblashadi[5].

Shuningdek, "UNESCO, "TVET Strategy 2022–2029" strategiyasida kasbiy ta'limga xalqaro o'quv modullarini joriy qilish, sertifikatlashni tan olinadigan tizimga aylantirish, ish beruvchilar bilan hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan[6].

Germaniyaning BIBB (Federal Institute for Vocational Education and Training) xalqaro kasbiy standartlarni ishlab chiqishda etakchi institutlardan biri. Germaniyada "dual ta'lim modeli" asosida o'qitish xalqaro bozor ehtiyojlariga juda yaqin deb hisoblaydi. Shuningdek, kasbiy ta'limdagi o'quv dasturlarini xalqaro malaka doiralari (EQF, TVET) bilan moslashtirish kerak deb hisoblashadi[7].

Xalqaro tadqiqotlar xulosalari (TVET Journal, OECD, World Bank)da kasbiy ta'lim tizimiga xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etishning ijobiy tomonlari sifatida quyidagilar ko'rsatib o'tilgan. Jumladan:

Mehnat migrasiyasini rasmiylashtirishga yordam beradi, mamlakatda yoshlar bandligi va kasbiy ta'lim tizimi bitiruvchilari bandlik darajasini kamaytiradi, innovasiyaon ishlab chiqarishga ixtisoslagan kadrlarni tayyorlash yo'lga qo'yiladi hamda yoshlarni xalqaro mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshiradi[8].

Xulosa qilib aytganda yuqoridagi olimlar va xalqaro tashkilotlarning ekspertlari tomonidan bildirilgan fikrlarni tahlil qiladigan bo'lsak kasbiy ta'lim tizimiga xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish zamonaviy kasblar bo'yicha raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, bitiruvchilarga xalqaro sertifikat va diplomlar orqali xalqaro mehnat bozoriga yo'l ochish bo'yicha chuqur ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishida mamlakatimiz hamda xorijiy rivojlangan davlatlar iqtisodchi olimlarining kasbiy ta'lim tizimiga xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari, olimlarning qarashlari hamda fikr va mulohazalari tahlil etilgan. Maqolada empirik, tasviriy statistika, guruhlashtirish, qiyosiy va dinamik tahlil tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi globallashtirish davrida kasbiy ta'lim tashkilotlari oldida mehnat bozorining xalqaro talablariga javob beradigan raqobatbardosh o'rta bo'g'in kadrlar tayyorlash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bois, kasbiy ta'lim tizimiga xalqaro standartlar asosida xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Global ta'lim va tashqi mehnat bozoriga yo'l - bu yoshlarni xalqaro miqyosda bilim olish, kasb o'rganish, malaka oshirish va ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini ifodalaydigan murakkab, ammo istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

Global ta'lim va tashqi mehnat bozori integrasiyasi – bu xalqaro ta'lim tizimi bilan mehnat bozorining o'zaro uyg'unlashuvi, ya'ni yoshlar xorijda ta'lim olib, yoki xalqaro ta'lim dasturlari asosida kasb o'rganib xalqaro mehnat bozorida egallagan malakasini tan olish jarayonlaridir.

Bugungi kunda kasbiy ta'limga xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etishning asosiy sabablaridan biri bu mehnat migrasiyasining ortib borishi sababli xorijga ishlash maqsadida ketayotgan yoshlarni xalqaro tan olingan diplom va sertifikatga ega bo'lishi hamda Global ta'lim va xalqaro mehnat bozori bilan integrasiyasi ta'minlanishi bitiruvchilarni dunyoning ko'plab davlatlarida ishlay olish imkoniyatini beradi.

Hozirgi kunda Respublikamizda 595 ta texnikumlarda 301 ta kasb va mutaxassislik bo'yicha jami 353,1 ming nafar fuqarolar ta'lim olmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024 yil 16 oktyabrdagi PF-158-son Farmoni bilan 2025/2026 o'quv yilidan boshlab texnikumlarda xalqaro ta'lim dasturlari joriy etish belgilandi.

Bugungi kunda texnikumlarda xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

1) Germaniyaning "Avestos" kompaniyasi bilan hamkorlikda Germaniyaning Kasbiy ta'lim palatasi va "Avestos" kompaniyasi bilan hamkorlikda 2024/2025 o'quv yilidan boshlab Shahrisabz shahar 1-son



politeknikumida “Bino va inshootlar qurilishi” kasbi bo'yicha 32 nafar va G'uzor tuman 1-son politeknikumida “Metallar texnologiyasi” kasbi bo'yicha 32 nafar o'quvchilar nemis standartlari asosida tayyorlash yo'lga qo'yilgan.

2025/2026 o'quv yilidan boshlab Qashqadaryo viloyatidagi 6 ta texnikumda “Avestos” kompaniyasi bilan hamkorlikda 32 nafardan jami 192 nafar o'quvchilar nemis standartlari asosida o'qitish yo'lga qo'yiladi.

Qarshi transport va servis texnikumi, Qarshi shahar 2-son politeknikumi, Koson tuman 1-son politeknikumi, Chiroqchi tuman 3-son politeknikumi, G'uzor tuman 1-son politeknikumi, Shahrisabz shahar 1-son politeknikumi.

2) Angliyaning “Pearson Education Limited” kompaniyasi bilan hamkorlikda Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligi o'rtasida

(765 596 funt sterling) shartnoma imzolandi hamda boshlang'ich mablag'lar o'tkazib berilgan. 14 ta texnikumda qurilish va ta'mirlash ishlari uchun 60 mlrd so'm mablag' ajratildi. Hozirgi kunda 11 ta texnikumda qurilish ta'mirlash ishlari olib borilmoqda.

Pearson kompaniyasining 9 ta kvalifikasiya bo'yicha o'quv va ustaxonalarni jihozlash maqsadida texnikumlarga va 28 mlrd so'm o'tkazib berildi. Shuningdek, Pearson ta'lim dasturlari joriy etish bo'yicha 14 ta texnikumga 9 ta kvalifikasiya bo'yicha 16 ta kasb va mutaxassisliklarga 120 nafardan jami 1 680 ta davlat granti asosida qabul parametrlari tasdiqlandi.

Shundan 9-sinf bitiruvchilari negizida 1 350 ta, kamida umumiy o'rta ma'lumot 11-sinf negizida 330 ta qabul parametrlari tasdiqlangan. Bugungi kunda umumta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari uchun tasdiqlangan 1 350 qabul parametrlari uchun 2 mingga yaqin o'quvchilarning hujjatlari kelib tushgan.

3) Shveysariyaning “Globogate Concept” AG kompaniyasi bilan hamkorlikda 2025/2026 o'quv yilidan boshlab 15 ta tibbiyot texnikumlarida Germaniya mehnat bozori uchun hamshiralarni tayyorlash yo'lga qo'yilmoqda.

Mazkur loyiha Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligi hamda “Globogate Concept” AG kompaniyasi o'rtasida Tibbiyot texnikumlarida Germaniya mehnat bozori uchun “Hamshiralik ishi” mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlash maqsadida 2024 yil 17 sentyabrda hamkorlik shartnomasi imzolangan.

“Globogate Concept” AG kompaniyasi buyurtmasi asosida 2025/2026 o'quv yili uchun 15 ta texnikumning har birida 50 nafar “Hamshiralik ishi” mutaxassisligi bo'yicha o'qitish belgilandi.

Germaniya ish beruvchilari takliflari asosida 5 ta fanlar va nemis tili o'quv dasturlari mutaxassislar tomonidan ko'rib chiqilmoqda. Nemis tilini B2-C1 darajaga ega bo'lgan 21 nafar o'qituvchilarni texnikumlarga ishga qabul qilish jarayonlari boshlangan.

4) Saudiya Arabistonning “ACWA Power” kompaniyasi bilan hamkorlikda Sirdaryo viloyatidagi Shirin energetika texnikumida «ACWA Power» kompaniyasining buyurtmasiga ko'ra Oksford universitetining NOMAC dasturi asosida 4 ta kasb bo'yicha 290 nafar kadrlar tayyorlanmoqda.

Saudiya Arabistonining Energetika va Suv Akademiyasi (EWA) bilan hamkorlikda bir yillik dasturi asosida 95 nafar o'quvchilar «Bug'-gaz qurilmalarini ishlatish», «Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga xizmat ko'rsatish» kasblariga o'qitilmoqda.

2025 yil 12 iyun kuni IV Toshkent xalqaro investisiya forumi doirasida “ACWA Power” kompaniyasi bilan 2030 yilgacha 20 mln dollar miqdoridagi investisiya kiritish bo'yicha kelishuv imzolangan.

5) Germaniyaning “Askania Bildung” kompaniyasi bilan hamkorlikda Germaniyaning “Askania Bildung” kompaniyasi bilan hamkorlikda 6 ta texnikumlarda nemis ta'lim dasturi “Ausbildung” tizimi yo'lga qo'yildi.

2025/2026 o'quv yili uchun texnikumlarga 5 ta kasb bo'yicha 1 750 ta qabul parametrlari tasdiqlandi.

“Ausbildung” tizimi asosida texnikumlarda o'qish muddati uch yil etib belgilandi, o'qish muddatining birinchi yilini O'zbekistonda qolgan ikki yili Germaniyada davom etiriladi. Ushbu dastur asosida texnikumlarga 17-26 yoshdagi fuqarolar o'qishga qabul qilinadi.

Bitiruvchilarga O'zbekiston Respublikasi davlat namunasidagi diplom hamda hamkor xorijiy tashkilotning tegishli hujjati (diplom yoki sertifikat) beriladi.

6) Germaniyaning “Bildungswerk der Sächsischen Wirtschaft gGmbH” kompaniyasi bilan hamkorlikda 2025/2026 o'quv yilidan boshlab Germaniyaning Saksoniya iqtisodiyoti o'quv markazi bilan hamkorlikda Samarqand va Marg'ilon turizm va madaniy meros texnikumlarida 50 nafar “Turizm va mehmonxona xizmati” mutaxassisligi bo'yicha Germaniya mehnat bozori uchun kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yiladi.

7) Janubiy Koreyaning “Deajong Health” universiteti bilan hamkorlikda Janubiy Koreya Respublikasining Daejeon sog'liqni saqlash universiteti bilan hamkorlikda 2025/2026 o'quv yilidan boshlab Samarqand viloyatidagi Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi va Toshkent shahridagi Sergeli Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumida “Hamshiralik ishi” mutaxassisligi bo'yicha 30 nafardan jami 60 nafar o'quvchilarni o'qitish belgilandi.



Kasbiy ta'lim tizimida 2025/2026 o'quv yilida joriy etiladigan xalqaro ta'lim dasturlari bo'yicha ma'lumot

Xorijiy davlatlar	Xalqaro dastur nomi	Texnikum soni	O'quvchi soni	Yo'nalish nomi
		 15 ta 1 890 ta		Qurilish, xizmat ko'rsatish, axborot texnologiyalari va tibbiyot
		 6 ta 192 ta		Qurilish va sanoat
		 6 ta 1 750 ta		Transport va qurilish
		 2 ta 50 ta		Turizm va mehmonxona
		 15 ta 750 ta		Tibbiyot
		 1 ta 385 ta		Qayta tiklanuvchi energiya manbaalari
		 2 ta 60 ta		Tibbiyot
JAMI:		47 ta	5077 ta	9 ta

Global ta'lim bu xalqaro ta'lim dasturlari asosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, xalqaro standartlarga mos bilimlar va soft skills (yumshoq ko'nikmalarga o'qitishni joriy qilish, xorijiy tillarni bilish orqali ko'proq xalqaro mehnat bozorida ishga joylashish imkoniyatini kengaytirida.

Bugungi kunda O'zbekistonlik yoshlar uchun tashqi mehnat bozorida qurilish, transport, tibbiyot, turizm, xizmat ko'rsatish, muhandislik va IT sohasidagi ish o'rinlariga joylashmoqda. Yoshlarni xalqaro mehnat bozorida ishlash orqali yuqori malaka va tajriba olish imkoniyati kengayib bormoqda.

Global ta'lim xalqaro standartlarga mos bilim va ko'nikmalarni shakllantiradigan ta'lim shakli hisoblanadi. Jumladan:

Dual ta'lim "Ausbildung" dasturlari asosida (o'qish-amaliyot) Germaniya tajribasi asosida, Buyuk Britaniyaning Perason dasturi asosida, shuningdek xalqaro tan olingan malaka sertifikatlarini joriy etish orqali yoshlarni xalqaro mehnat bozorida yuqori daromadli ish o'rinlari bilan ta'minlash lozim.

O'zbekistonda so'nggi yillarda kasbiy ta'limga xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etilishi orqali yoshlarga tashqi mehnat bozoriga chiqishda keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Shuningdek, texnikumliklarda xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etishning afzalliklari sifatida quyidagilarni sanab o'tishimiz mumkin. Jumladan:

Birinchidan, ta'lim sifati ya'ni amaliyotga yo'naltirilgan o'quv dasturlari joriy etiladi hamda xalqaro akkreditatsiyadan o'tkaziladi;

Ikkinchidan, texnikum bitiruvchilarining egallagan malakalarini ya'ni diplomlarini xorijiy ish beruvchilar tomonidan tan olinishi bitiruvchilarni xorijda yuqori daromadli ish o'rinlariga ishga joylashish imkoniyatini oshiradi;

Uchunchidan, Xalqaro ta'lim dasturlari joriy etiladigan texnikumlarning pedagoglari va ishlab chiqarish ta'lim ustalari xorijiy tajriba asosida malaka oshirish va qayta tayyorlovdan o'tkaziladi. Shuningdek, xalqaro treninglar va stajirovkalarga jalb qilinishi ularni xalqaro tajriba asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlash darajasi oshib boradi.

To'rtinchidan, Xalqaro ta'lim dasturlarining moddiy-texnika bazasi, o'quv laboratoriya jihozlari xorijiy davlatlarning standartlari asosida yangi zamonaviy jihozlar bilan jihozlanadi. Natijada o'quvchilarni amaliy ko'nikmalari xalqaro standartlarga moslashadi.



Muammo va takliflar.

O'zbekistonda xalqaro kasbiy ta'lim dasturlarini joriy qilishda quyidagi muammolar mavjud. Jumladan:

Birinchidan, Texnikumlarda xalqaro ta'lim dasturlari yoki xorijiy rivojlangan davlatlarning kollej va texnikumlari bilan qo'shma ta'lim dasturlarini joriy etish bo'yicha qonunchilikda tartib mavjud emas.

Ikkinchidan, Texnikumlarning moddiy-texnik bazasi, laboratoriya va simulatsion jihozlari, binolari rekonstruksiya 2010-2015 yillardan keyin e'tibor berilmagan buning natijasida bugungi kunga kelib 569 ta texnikumning qurilish-ta'mirlash, rekonstruksiya va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash kerak.

Uchinchidan, Texnikum o'qituvchilari va ishlab chiqarish ta'lim ustalarining oyligi kamligi texnikumlarga yuqori malakali pedagoglarni jalb qilish imkoniyatini cheklayabdi. Natijada xalqaro ta'lim dasturlari joriy etilayotgan texnikumlar o'qituvchilarini qayta tayyorlash va malaka oshirishdan o'tkazish uchun qo'shimcha mablag' yo'naltirilmoqda. Shuningdek xorijiy til bo'yicha sertifikatga ega o'qituvchilar soni kam hisoblanadi.

To'rtinchidan, Texnikumlarda kasb o'rganayotgan o'quvchilarning chet tilini bilmasligi tashqi mehnat bozori uchun zarur bo'lgan xorijiy til ko'nikmalari etarli emas. Buning natijasida bitiruvchilar xorijiy ish beruvchilar tomonidan tashkil etilayotgan ish o'rinlari bo'yicha saralash jarayonlaridan o'ta olmayabdi.

Beshinchidan, Kasb tanlashda ma'lumot yoshlar orasida etishmasligi, ko'plab yoshlar o'zlariga mos kasblar bo'yicha tegishli va aniq ma'lumotga ega emaslar hamda kasblarning kelajagi, mehnat bozorida ish beruvchilarning talablari va daromad manbalari haqida ma'lumotlar cheklangan.

Bundan tashqari kasbga yo'naltirish jarayoni mehnat bozori bilan uzviy bog'lanmagan holda tashkil etilmoqda hamda kasbga yo'naltirish bo'yicha professional mutaxassislar etishmaydi.

Oltinchidan, Global ta'lim va xalqaro mehnat bozori integratsiyasi ta'minlanmaganligi natijada texnikum bitiruvchilarining egallagan ko'nikmalari xalqaro mehnat bozorida tan olinmayabdi. Natijada bitiruvchilar xorijda yuqori daromadli ishga joylasha olmayabdi.

Takliflar:

Birinchidan, Texnikumlarda xalqaro ta'lim dasturlari yoki xorijiy rivojlangan davlatlarning kollej va texnikumlari bilan qo'shma ta'lim dasturlarini joriy etish bo'yicha Hukumat qaror loyihasini ishlab chiqish zarur.

Ikkinchidan, texnikumlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo'yicha 2026-2030 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonini ishlab chiqib 2026 yildan yillar kesimida texnikumlarni qurilish ta'mirlash, rekonstruksiya qilish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash choralari ko'rish lozim.

Uchinchidan, texnikum o'qituvchilari va ishlab chiqarish ta'lim ustalarini oylik ish haqini qayta ko'rib chiqish hamda xorijiy til o'qituvchilarga xorijiy til sertifikatiga ega bo'lgan o'qituvchilarga

100 foyizgacha ustama to'lash tartibini joriy qilish.

To'rtinchidan, Texnikumlarda boshlang'ich kasbiy ta'lim dasturida ya'ni 9-sinf bitiruvchilari negizida hamda o'rta maxsus kasbiy ta'lim dasturlari bo'yicha ya'ni 11-sinf bitiruvchilari negizida ta'lim olayotgan o'quvchilar uchun xorijiy til kurslarini V1 darajada egallashi uchun amaldagi 180 soatdan 600 soatgacha oshirish hamda tashqi mehnat bozorida tayyorlanadigan kasblar ta'lim dasturlari xalqaro standartlarga moslashtirish lozim.

Beshinchidan, Yoshlarni kasbga bo'lgan qiziqishini yanada kengaytirish va mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar haqida ma'lumotlarni shakllantirib borish hamda kasbga yo'naltirish jarayonlarini yanada takomillashtirish maqsadida "Kasblar atlas" platformasini joriy qilish lozim.

Mazkur platformani 3 guruhga bo'lish lozim:

a) yangi kasblar (hali rasmiy ravishda mavjud bo'lmagan, ammo yaqin kelajakda paydo bo'lish ehtimoli yuqori bo'lgan kasblar);

b) o'zgaruvchan (transformasiyalashadigan) kasblar - bular mavjud bo'lgan kasb va mutaxassisliklar bo'lib, ular yuqori ehtimollik bilan tez o'zgaradi yoki transformasiya bo'ladi.

d) yo'qolib ketadigan kasblar (bu yuqori ehtimollik bilan yaqin kelajakda talab qilinmaydigan kasblar).

Shuningdek, Platformaga yoshlarni kasbga bo'lgan qiziqishini aniqlash maqsadida kasb tipini, kasb turkumini, kasb bo'limlarini va kasb guruhlarini aniqlash bo'yicha testlarni joylashtirish lozim.

Platformada mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan sohalar – qurilish, transport, turizm, energetika, qishloq xo'jaligi, neft va gaz, mashinasozlik, tog'-kon sanoati, xizmat ko'rsatish, axborot texnologiyalari kabi zamonaviy sohalar bo'yicha ajratish kerak.

Oltinchidan, Global ta'lim va tashqi mehnat bozori integratsiyasini ta'minlash maqsadida texnikumlarda xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish orqali bitiruvchilarni global bozor uchun tayyorlash, xorijda ishga joylashish imkoniyatini oshiradi, buning natijasida davlat byudjetiga xorijiy valyuta tushumlari ko'payadi, xorijga ishga ketgan fuqarolar tomonidan yangi texnologiyalar va ko'nikmalarni olib kirish imkoniyati yaratiladi hamda mehnat migratsiyasining noqonuniy oqimlari kamaytirishga erishiladi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Texnikumlarda xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish – bu faqat ta'lim sifatini oshirish emas, yoshlarni global mehnat bozoriga tayyorlash, yoshlarni mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy migrasiyani qonuniylashtirish, yoshlarni egallagan ko'nikmalari bo'yicha xorijda tan olinishini ta'minlash orqali tashqi mehnat bozorida yuqori daromadli ish o'rinlariga keng yo'l ochadi.

Shuningdek, global ta'lim va tashqi mehnat bozorining integrasiyasi O'zbekistonlik yoshlarga yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Bu esa nafaqat individual taraqqiyot, balki mamlakat iqtisodiyotining innovasiyaon rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Shu bois, bu jarayon davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanishi lozim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Касбий таълимда малакали кадрлар тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш ва халқаро таълим дастурларини жорий қилиш чора-тадбирлари тўғрисида” 2024 йил 16 октябрдаги ПФ-158-сон Фармони[1].
2. Супер. Д.Е. “Kasbiy rivojlanish nazariyasi” (Career Development Theory), “The Psychology of Careers” (1957) [2].
3. Д. Аштоннинг “Education and the Economy” (1993, co-authored with Francis Green and others)[3].
4. Д. Колбнинг “Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development” (1984)[4].
5. ILO (Халқаро Меҳнат Ташкилоти) – Ёшлар бандлиги бўйича ҳисоботлар[5].
6. “UNESCO, “TVET Strategy 2022–2029” стратегияси бўйича ҳисоботлари[6].
7. Германиянинг BIBB (Federal Institute for Vocational Education and Training) ҳисоботлари[7].
8. Jahon banki – Remittance Data Report (2023) ҳисоботлари [8].
9. Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлигининг prof-emis.edu.uz электрон платформасидан олинган таҳлилий маълумотлар асосида тайёрланди.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
